



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.3060/4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 31.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Turg'unova Barnoxon Nabiyevna

Qo'qon universiteti Ta'lim muassasalarining boshqaruvi

yo'nalishi magistranti

Uzbekistan

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARI VOSITASIDA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Abstract: In this article, concepts such as competence, morality, literary and philosophical works, sharing of experiences, moral education, dialogue and debate, practical training, and role modeling are widely covered.

Key words: Competence, ethics, literary and philosophical works, sharing experiences, moral education, conversation and debate, practical training, role modeling.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kompetentlik, ahloq, adabiy va falsafiy asarlar, tajribalar bilan baham ko'rish, axloqiy ta'lim, suhbat va munozaralar, praktik mashg'ulotlar, model sifatida o'rnak olish kabi tushunchalar keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, ahloq, adabiy va falsafiy asarlar, tajribalar bilan baham ko'rish, axloqiy ta'lim, suhbat va munozaralar, praktik mashg'ulotlar, model sifatida o'rnak olish.

Аннотация: В этой статье широко освещаются такие понятия, как компетентность, этика, литературные и философские произведения, обмен опытом, моральное воспитание, беседа и дебаты, практическое обучение и ролевое моделирование.

Ключевые слова: Компетентность, этика, литературные и философские произведения, обмен опытом, моральное воспитание, беседы и дебаты, практическое обучение, ролевое моделирование.

Language: Uzbek

Citation: Turgunova , B. DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND ETHICAL COMPETENCE OF LEADERS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS THROUGH THE WORKS OF EASTERN THINKERS. Universal International Scientific Journal, 93–95. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1150>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13957723>

Hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim va tarbiya muhiti ta'lim muassasalari rahbarlar faoliyati uchun zarur sanalmoqda. Xususan, davlat va jamiyatning tubdan o'zgarishi, hayotimizga kirib kelgan axborot kommunikatsion vositalar, fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari va oldingi ta'lim muassasalari rahbarlaridan tubdan farq qiluvchi o'zgacha fikrlovchi ta'lim muassasalari rahbarlarning vujudga kelganliklarini aytish mumkin. Shu bilan birga, butun dunyoda bo'layotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ham, xususan Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari, Yevropa va Amerika qit'asidagi 10-15 yildan buyon amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlarni keltirish mumkin.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilim-lardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat hamda iqtidorni namoyon eta olish “Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yechim topishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va

murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi[1].

Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiya yada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi[2].

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun qoidalar majmuidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash[3].

Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida ta'lim muassasalari rahbarlarining ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish usullari quyidagilardan iborat:

1. Adabiy va falsafiy asarlar: Sharq mutafakkirlarining asarlari (masalan, Al-Farobi, Ibn Sino) orqali rahbarlar axloqiy qadriyatlar, adolat va insoniylik haqida chuqur tushuncha oladilar.

2. Tajribalar bilan baham ko'rish: O'zaro tajriba almashish orqali rahbarlar o'zaro fikrlar va yondashuvlar bilan tanishadilar, bu esa o'zlarining ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Axloqiy ta'lim: Ta'lim jarayonida axloqiy prinsiplarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish, rahbarlarga ma'naviy-axloqiy masalalarda bilim berish.

4. Suhbat va munozaralar: Mutafakkirlarning asarlari asosida tashkil

etilgan muhokamalar, rahbarlarning fikrini ochib berish va yangi g'oyalar bilan tanishtirishga yordam beradi.

5. Praktiki mashg'ulotlar: Rahbarlar uchun axloqiy qadriyatlarni amaliyotda qo'llashga qaratilgan treninglar va seminarlar.

6. Model sifatida o'rnak olish: Sharq mutafakkirlarining axloqiy jihatlarini o'z hayotida amalga oshirish, rahbarlar uchun o'rnak bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu usullar rahbarlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini oshirishda samarali bo'lib, ta'lim muassasalarida ijobiy muhitni yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. / Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 120 b.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarda-ma-naviy-axloqiy-tarbiya/viewer>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axloq>.